Kombaynlar taraqqiyotida quvvatliroq mashinalarga ega bo'lish tendensiyasi kuchli. Biroq huquqiy ko'rsatmalar mashina quvvatini oshiradigan qismlarini yanada kattalashtirishga yo'l qo'ymaydi.

Unumdorlikni oshirish uchun texnik yechimlar taklif qilinaypti, ular bo'yicha odatdagi to'qmoqli molotilka ajratib olinish imkoniyati bilan o'rnatilgan bo'ladi yoki ular o'rniga quvvatli klavishli poxol titqichlarni qo'yish mumkin bo'ladi:


- ▶ markazdan qochirma separator: Yanchish qism ko'ndalang, markazdan qochirma separator savatli, klavishli poxol titqich qisqartirilgan.
- ▶ separatsiya barabanlari va savatlar: Klavishli poxol titqich o'rniga 8 ta separatsiya barabanlari va savat donni poxoldan ajratadi.
- ▶ markazdan qochirma separator va ikki oqimli separatorli rotor: klavishli poxol titqich o'rniga to'ntarib beruvchi baraban, markazdan qochirma separator va ikki oqimli separatorli rotor o'rnatilgan bo'ladi.

Oqim bo'ylama bo'lgan kombaynlarda harakat yo'nalishi bo'yicha yanchish, ajratish va separatsiya uchun maksimal tarzda ikki rotor o'rnatiladi.

### 2.2.4. Maxsus ekinlarni yanchish


Raps, kungaboqar, loviya, no'xat yoki o't (gras) urug'lari kabi maxsus ekinlarni yanchish kombaynni qayta jihozlashni talab qiladi. Ba'zi konstruksiyalarni ekin turiga maxsus sozlash lozim.

Rapsni yanchish uchun o'roq moslamasining uzaytirilgan stoli zarur. Raps ekinlarini chirmashishdan ajratish uchun yon tomon (bokovoy) o'roq moslamalari kerak. O'rilgan raps iloji boricha bir xil tarzda va




130-rasm. Qo'shimcha ajraluvchi moslamalar kombaynning ish quvvatini oshiradi.


131-rasm. Tozalash moslamasi (sxema).



132-rasm. O'rtada: Yanchish sistemasi bo'yiga bo'lgan kombayn (ishlash sxemasi).




133-rasm. Boshqoq qismlari kurakli (kovshli) elevatorda yanchiladi, keyin tayyorlovchi stolga tushadi.



134-rasm. Yanchish tizimi, separatsiya barabani va aylanadigan poxol ajratkichi bilan.

135-rasm. Yanchish tizimi, poxolni ajratuvchi 2 aksial rotor bilan.



motovilo (parrak) ning yordami bilan shnekka yetkazib berilishi kerak. Bunda o'ruvchi stol atrofi nobudgarchiligiga alohida e'tibor berish lozim.

Kungaboqarni yanchish uchun maxsus mokilar o'rnatilgan o'roq moslamasi qo'llaniladi. Bunda o'roq moslamasining balandligi nisbatan yuqori sozlanishi zarur. Bu bilan poya massasini iloji boricha moslamaga kamroq o'tishi ta'minlanadi va, shu orqali, ko'k va xax poyalar tufayli don namlanishi bartaraf qilinadi. Yanchilayotgan kungaboqar to'pgullari mokilar bilan ushlab olinadi va u yerdan shnekka yetkazib beriladi.

Dala loviyasini yanchish uchun, xuddi rapsdagidek, mashinaning ikki chetida yon tomon o'roq moslamalari o'rnatilgani ma'qul. No'xatning chirmashadigan, tik turuvchi navlarini yanchish uchun don kombaynidan foydalanish mumkin.

O't (gras) urug'lari ham kombaynlar bilan o'rib-yanchib olinadi. O'rilgan no'xat va o't urug'larini yanchish uchun kombaynning o'roq stoli podborshchik (to'kilgan don, o'tlarni terib oluvchi moslama) bilan jihozlanadi.

Maxsus ekinlar kombaynlarining o'rish, yanchish va tozalash moslamalarini sozlash maxsus jadval asosida amalga oshirilishi lozim. Ular ish jarayonida muhit va boshqa uchraydigan shart-sharoitlarga qarab sozlanib turiladi.



#### Vazifalar:

1. Yig'ilayotgan don mashinaning qaysi qismlari orqali o'tishini nomlang.
2. O'rilyotgan poxol mashinaning qaysi qismlari orqali o'tishini nomlang.
3. Boshqoqlar to'la yanchilmasa, mashina qanday sozlanadi?
4. Agar elakda don nobudgarchiligi kuzatilsa, mashina qanday sozlanadi?

# G'alla yetishtirish

# 2

- |                           |    |
|---------------------------|----|
| 1. Bug'doy yetishtirish   | 62 |
| 2. Arpa yetishtirish      | 69 |
| 3. Javdar yetishtirish    | 73 |
| 4. Triticale yetishtirish | 75 |
| 5. Suli yetishtirish      | 77 |

G'alla yetishtirish deganda faqat turli don ekinlarini ekish va ularning hosilini yig'ib olish tushunilmaydi. Avvalo, g'alla ekinlarining har bir turi va navining o'ziga xos xususiyatlarini baholash, ularni tahlil qilish va shunga muvofiq, agrotexnik va o'simlikshunoslikka oid chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur.

Ekinlar rivojini muntazam kuzatib borish, kasbiy bilim va malakalarni faol tarzda qo'llash, olingan natija va ma'lumotlarni tahlil qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish orqali barcha bilim va qobiliyatni ishga solib, "ekinlar bilan yaqin munosabatda bo'lish" zarur



# 2 G'alla yetishtirish

## 1. Bug'doy yetishtirish (*Triticum aestivum*)



170-rasm. Bug'doy ekinlari poyalashda.

### 1.1. Ahamiyati

Germaniyada asosan oddiy (*Triticum aestivum*) va qisman qattiq bug'doy (*Triticum durum*) ham yetishtiriladi. Qattiq bug'doydan asosan non mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladi. Bu bug'doy qisqa kunlarda pishib yetilishga moyilligi tufayli Janubiy Germaniyada va Pfals hududida keng miqyosda yetishtiriladi.

Oxirgi paytlarda bug'doyning spelta navi (*Triticum spelta*) shartnoma asosida fermerlar tomonidan ommaviy tarzda ekila boshlandi. Spelta navidan asosan tabiiy oziq-ovqat mahsulotlari sotiladigan do'konlar va ana'naviy novvoyxonalar tobora ko'proq foydalanmoqda.

Bug'doy yetishtiriladigan maydon Germaniyada ekiladigan jami ekin maydonining taxminan 40% tashkil qiladi va u 2005 yilda bug'doy maydoni 3,17 mln. gektarga yetgan. Jami bug'doy yetishtiriladigan maydonlarning 98% ni kuzgi bug'doy egallaydi. Bahorgi bug'doy o'zining ancha past hosildorligi tufayli faqat zahira ekin sifatida yoki kuzgi bug'doy vaqtida ekilmay qolgan hollardagina yetishtiriladi. Undan asosan yem, ozuqa sifatida keng foydalaniladi. Bug'doyning o'rtacha hosildorlik 2005 yilda 74,7 sentner/ga ni tashkil qildi. Qulayroq iqlim shart-sharoiti tufayli hosildorlik janubga qaraganda shimolda yuqori bo'ladi. Bug'doy yetishtirishni yanada oshirib borish, Yevropa Ittifoqining agrar siyosatining ta'siri tufayli, hozirgi kunda muammoli hisoblanadi


### 1.2. Yetishtirish texnologiyasi

#### 1.2.1. Tuproq va iqlim sharoitiga bo'lgan talablar

Tuproq – Bug'doy uchun chuqur joylashgan, oziq moddalariga boy, suvni yaxshi jamlaydigan, hamda neytral reaksiyali tuproq afzal hisoblanadi. Shu sababli yog'inlar yaxshi taqsimlangan, organik moddalar bilan yetarli darajada ta'minlangan va yetarli darajada o'g'it solingan yengil tuproqli yerlar, bahori qurg'oq kelgan davrlarda ham ekish uchun qulaydir.

Ob-havo sharoiti. Bug'doy uzoq vaqt qor bilan qoplanishni va qishqi namlikni yoqtirmaydi, boshqa don turlari orasida uning issiqlikka bo'lgan ehtiyoji juda katta. Bug'doy uchun quruq kuz va qish boshi afzal, biroq namli tuproqqa bug'doy boshqa don ekinlariga qaraganda yaxshiroq chidaydi. Shoxalash va boshog'lash uchun o'z vaqtida issiq bo'lishi, bahorda esa namli va quyosh kam chiqib tur-

171-rasm. Donni almashlab ekish (misol).



gan ob-havo bug'doy uchun juda qulaydir. Poyalashda va boshqalash paytida bug'doyning suvga bo'lgan ehtiyoji eng katta bo'ladi.

### 1.2.2. Almashlab ekish, organik moddalar bilan o'g'itlash

Almashlab ekish. Bug'doydan oldin tuproqni bo'sh, yumshoq holatda ushlaydigan asosan bargli va chopiq qilinadigan o'simliklarni ekish afzal. Shimoliy Germaniyada kuzgi bug'doyni odatda qand lavlagidan keyin ekadilar. Chopiq qilinadigan ekinlar hosili yig'ishtirilgandan keyin, dala tuprog'i ko'p hollarda zarar ko'rgan bo'ladi, uni qaytadan yana ekishga yaroqli holga keltirish ancha qiyin ish hisoblanadi. Almashlab ekishda bug'doydan oldin zamburug' kasalliklari yuqtirilishi sababli arpani ekish tavsiya qilinmaydi. Agar arpa ekilishi zarur bo'lsa, arpadan keyin yashil o'g'it sifatida qo'llaniladigan o'simliklarni ekish tavsiya qilinadi.

Organik moddalar bilan o'g'itlash. Chorvachilik bilan shug'ullanmaydigan xo'jaliklarda qandlavlagining maydalangan barglari va poxolidan o'g'itlashda foydalansa bo'ladi. Bug'doy ekilishidan oldin yarim suyuq go'ng ham ishlatiladi. Biroq uning o'g'itlash qiymati oziq moddalar balansida imkoni boricha aniq hisoblab chiqilishi kerak.

### 1.2.3. Nav tanlash

Sifat belgilari – Bug'doy navlari tegirmondan chiqishi yoki novvoyxonada (nonbop bo'lishiga) ishlatilishiga ko'ra klassifikatsiya qilinadi. Bunda birinchi navbatda bug'doyning yanchilishi, yaxshi un beshi va unning tandirdan yaxshi chiqishi (yopilishi) hisobga olinadi.

Bug'doy kraxmalga boyligi, xom biriktiruvchi to'qimalar(kletchatka)ning kamligi hisobiga barcha hayvon turlari uchun qiymatli yem turlaridan biri hisoblanadi. Hayvonlarni boqish uchun proteinning katta miqdori ma'qul.

Qattiq bug'doy miqdorida donning maydalanganligi va begona narsalar aralashmasi 5% dan oshmasligi kerak. Bug'doyning qoraligi 3% atrofida bo'lishi lozim

Pivo pishirishga mo'ljallangan bug'doyga donning yaxshi rivojlanganligi, yuqori unuvchanligi va ferment aktivligi kabi xossalar zarur. Non mahsulotlarini pishirish va yem uchun mo'ljallangan bug'doyga nisbatan, pivo pishirish uchun o'stirilayotgan bug'doy tarkibida protein miqdori 12% dan kam bo'lishi lozim.

Unib chiqishi. Donni tuyush jarayonida unli yadro (endosperm) po'sti kurtak va hujayralarning aleyron qatlamidan ajratiladi. Texnik sabablarga ko'ra unli yadroni butunligicha ishlatib bo'lmaydi. Oq uning chiqishi asosan bug'doy navining genetikasi bilan belgilanadigan butun don tarkibidagi kul miqdoriga bog'liq. Kul miqdori qancha kam bo'lsa, un chiqishi shuncha ko'p bo'ladi. Uning standart 550-turida kul miqdori 0,55% ni tashkil qiladi, un chiqishi – 75% ga yaqin bo'ladi. Qolgan qismi kepakka chiqadi.

Non mahsulotlari tayyorlanish xususiyati. Novvoyxona va non zavodlari unning yengil qayta ishlanishi, chiqimi katta bo'lishi va tandirdan chiqqan nonning kovakchalari kam, biroq po'ssillab turishini istaydilar. Nonning bunday xususiyatli bo'lishi uchun yuvilib ketadigan koloidal oqsil moddalarning – ular "kleykovina" tushunchasi bilan umumlashtiriladigan miqdori va sifati alohida ahamiyatga ega. Shu sababli bug'doy navining non mahsulotlari tayyorlashdagi muhim xususiyatlari quyidagicha baholaniladi:



172-rasm. Tegirmonning valsokva qilish (jo'valash, yoyish) qavatining ko'rinishi.




173-rasm. Bug'doy tarkibidagi kleykovina miqdori laboratoriyada kleykovinani yuvib chiqarish orqali aniqlanadi.



174-rasm. Sifati past (chapda) va sifati yuqori (o'ngda) kleykovina bo'lganda xamir xossalari.

175-rasm. Non pishirish (yopish) xossalari yomon (chapda) va yaxshi (o'ngda) bo'lganda nonni sinab yopib ko'rish.




# Kombaynda yig'ib olinuvchi o'simliklarni yetishtirish

# 3

1 Raps doni	82
2 Kungaboqar	91
3 Dukkakli ekinlarni yetishtirish	93

Bugungi kunda ko'pchilik fermerlar o'zlarining xo'jaliklaridagi ishlab chiqarish resurslaridan optimal foydalanish uchun bozordagi imkoniyatlardan keng foydalanadilar.

Shunday vaziyatlarda foydalanish uchun fermerlarga ma'lumot sifatida mazkur bobda yana uchta kombaynda yig'ib olinuvchi o'simliklar - raps, kungaboqar va dukkakli o'simliklarni yetishtirish bo'yicha ma'lumotlar beriladi.



# 3 Kombaynda yig'ib olinuvchi o'simliklarni yetishtirish

## 1. Raps doni (*Brassica napus*)

### 1.1. Ahamiyat va sifati

Ahamiyati - raps doni yetishtirish yoki yog' olish uchun maydonlar Germaniyada asosan, sharqiy federal yerlarda Yevropa Ittifoqi yog' bozorini tartibga solish qonuniga muvofiq qayta ekishning ko'pligi va yuqori darajadagi mexanizatsiyalashgan mehnat taqsimoti tufayli keyingi yillarda ancha kengaydi. Hosildorlik 2005 yilda 37,8 ts/ga ni tashkil qiladi. Raps Germaniyada mavjud ishlab chiqarish sharoitlarida maydon birligiga ko'ra eng yuqori ozuqa ulushiga ega. Yog' olingandan keyingi qoldiqlardan hayvonlarni oziqlantirish uchun raps shroti ishlab chiqariladi.

Qishki raps uning bahorgisi yoki surepitsa (urug'ndan moy olinadigan o'simlik) bilan qiyoslanganda yog' olishda ko'proq ahamiyatga ega.

Sifat belgilari - oldinlari raps moyi tarkibida eruka kislotasi bo'lganligi va uning sog'lik uchun xavf tug'dirishi tufayli (hayvonlarda o'tkazilgan tajribalar ko'rsatishicha mushaklar va o'pkaning yog' bog'lashi, shu jumladan yurak mushaklarining o'zgarishi) ozuqa moylari va yog'lari ishlab chiqarishda qo'llanilmaydi. Bubda asosan seleksiya orqali muvaffaqiyatga erishildi:



Bugungi kunda sifatli raps navlaridan eruka kislotasi bo'lmagan kam glyukozino latli kafolatlangan navlar mavjud

Raps moyi mos keluvchi dvigatellarga yoqilg'i sifatida ham qo'llanilishi mumkin (dizel yo'qilg'isi o'rniga). Gektaridan 30 senter hosil olingan raps 1100 kg moy va 1900 kg 30% proteinli moy, moy kunjarasi, bundan tashqari yana 5% yog' beradi.

Raps kunjarasi tarkibida ko'p miqdorda oqsil mavjudligi tufayli maxsus 00-navlar orasida u yuqori kontsentratsiyalangan ozuqa yemi hisoblanadi.

Aniq bir turga kirmaydigan, ya'ni oraliq navlar yetishtirish uchun ko'pincha 00-navlardan foydalaniladi, chunki eruka kislotasi mavjud bo'lgan donlarning unib chiqishi raps doni moyi sifatining pasayishiga olib keladi.

Seleksiya orqali sifatni yaxshilashdan tashqari yana quyidagi maqsadlar ko'zlangan:

- ▶ linol kislotasi miqdorini oshirish; linol kislotasi juda kerakli yo'g' kislotasidir;




220-rasm. Bahorda gullab turgan raps dalalari raps yetishtirishning ko'lami ortib borayotganini ko'rsatadi




221-rasm. Raps mevasi

222-rasm. Germaniya Federativ Respublikasida raps yetishtirishning rivojlanishi (1991-yildan buyon: yangi federal yerlarni hisobga olgan holda).



13 - jadval. Raps donining sifat mezonlari.


Mezon	Miqdor chegarasi	Ta'siri
Eruka kislotasi	0 %	Yurak mushaklarining yog' boylashi
Glyukozinolat	maks. 20 mikromol (1991/92 dan buyon)	O'sishga halaqit beradi, achchiq ta'm tufayli ozuqani qabul qilishga halaqit qiladi
Suv miqdori aralashma (boshqa urug'lar) moy miqdori	maks. 9 % maks. 2 % minimal 40 %	Ko'p miqdordagi baho chegirmasi kam miqdordagi baho chegirmasi



223-rasm. Raps yetishtirishda muvaffaqiyat omillari

- ▶ linolen kislotasi miqdorini kamaytirish; linolen kislotasi moy erishi va sasishiga sabab bo'luvchi texnik sabablarga ko'ra raps moyi uchun keraksiz;
- ▶ glyukozinolat miqdorini kamaytirish; shrotdagi glyukozinolatlar (xantal moylari) ozuqa qabul qilinishini chegaralaydi, ko'k (gullovchi) o'simliklar bilan oziqlantirilganda sutning ta'miga ta'sir qiladi.

224-rasm. Rapsning iqlim va tuproqqa bo'lgan talabi (sxema).



## 1.2. Yetishtirish texnologiyasi

### 1.2.1. Ekin maydoniga qo'yiladigan talablar

Tuproq va iqlimga talab. Raps o'qildizli o'simlikdir. Tuproqning turi muhim rol o'ynamaydi, faqat botqoqlangan yoki yetarlicha suv ta'minotisiz quruq qumli tuproqlardan tashqari. Bundan tashqari pH-ko'rsatgichi 6,5 ni tashkil etishi lozim. Chunki don olish uchun, hususan, qishki raps yetishtirilayotganda kuzgi va qishki iqlim sharoitlari sermahsul hosil olish garovidir. Qishning erta kelishi qish oldi kuchli qulbarglarni shakllanishini qisqartiradi (6-12 barg). To'g'ri, ekin kuzda juda avj olib gurkirab ham ketmasligi kerak (egilib sinishi mumkin). Uzoq va qattiq qish rapsga zarar yetkazadi, chunki uning sovuqqa chidamliligi uncha yuqori emas (himoyalangan, yopilmagan tuproqda -15°C da). Bahorda tuproqning kech qurishi ildizlarning muzlab shikastlanish xavfini yuzaga keltiradi. Raps ko'p barg massasini hosil qiladi. Shu sababli erta bahordagi yetarlicha yog'ingarchilik miqdori yuqori hosil garovidir.

### 1.2.2. Almashlab ekish

Raps chuqur ildizli o'simlik sifatida, tuproqni yumshatadi, ko'p miqdorda organik moddalar qoldiradi va shu sababli tuproq tarkibining yaxshilanishi nuqta nazaridan, barcha o'simliklar uchun juda yaxshi dastlabki ekin turidir. U o'zining krestgullilar oilasiga umuman o'xshamasa ham, faqat *nematodlarga* chidamsizligi ularning umumiy o'xshashligidir. Shuning uchun ham, qandlavlagi, raps va surepitsani aynan bir maydonda yetishtirishda ular orasida 3-4 yil tanafuz talab qilinadi. Ko'pincha keyingi ekin g'alla yetishtiriladi. Qishki raps uchun oldingi ekinlar sifatida qoidaga ko'ra faqat arpa yoki





225-rasm. Qishda raps niholi 10-12 bargga ega bo'lishi lozim.



226-rasm. Qor erigandan keyingi raps ekinlari.

227-rasm. Raps ekinini zichligining kuzdagi va hosil yig'ish payti orasidagi bog'liqligi.



qishki javdar bo'lishi mumkin, chunki ular erta yig'ib olinishi tufayli, rapsni avgust oxirlarida ekish mumkin.

### 1.2.3. Ekish

Tuproqni ekish uchun tayyorlash. Tuproq chuqur yumshatilishi lozim, chunki rapsning o'q ildizi to'g'ri o'sishi kerak. Tuproqni ekinga tayyorlashda imkoni boricha maydalash uchun borona yoki quvvat olish vali orqali boshqariluvchi kultivatordan foydalanish zarur.

Ekish vaqti. Raps qishqacha chuqur o'rnashgan 6-12 plastinkasimon bargli kuchli o'simlik shakliga kirishi lozim. Shuning uchun ekish vaqti 20 avgustdan 25 avgustgacha. Germaniyaning shimolida joylashgan hududlarda birinchi muddatga, issiq bo'lgan janubiy Germaniyada bo'lsa, 25 avgustga yaqin vaqtlarda ekiladi.

Ekish me'yori. Sifatli raps olish uchun hamisha sertifikatlangan urug'likdan foydalanish lozim. Bunda navlarning regional tavsiyanomasiga ahamiyat berish lozim. Bahorda 70 tup/m<sup>2</sup> o'sish zichligiga erishish uchun 90% unuvchanlikda 75 tup/m<sup>2</sup> li urug'likni ajratib olish lozim(229-rasmga qarang).

Urug'ga bo'lgan ehtiyoj quyidagi formuladan kelib chiqadi


$$\text{Urug'ga ehtiyoj kg/ga da} = \frac{\text{don miqdori [har m}^2\text{da]} \pm 1000 \text{ don og'irligi [g da]}}{\text{maydonda kutilayotgan unib chiqish [\%da]}}$$

Misol: m<sup>2</sup>dagi don miqdori - 75  
 1000ta don og'irligi - 4,4 g  
 maydonda kutilayotgan unuvchanlik - 82%


$$\text{Ekish me'yori[kg/ga]} = \frac{75 \times 4,4}{82} = 4,0 \text{ kg/ga}$$



228-rasm. Raps gullarining bir paytda to'kilishi navning o'ziga hos xususiyatidir.



229-rasm. Rapsda ekish vaqti qanchalik kech bo'lsa, ekish me'yori shunchalik katta bo'lishi lozim.



230-rasm. O'rtada: Rapsning rivojlanish davrlari va parvarishi shuningdek, nihollarni himoyalash va o'g'itlash vaqtlari (sxema).

# Makkajo'xori yetishtirish (*Zea mays*)

# 4

1 Makkajo'xori yetishtirish asoslari	100
2 Yetishtirish texnologiyasi	102
3 Makkajo'xori yetishtirishdagi rentabellik	116

O'simlikchilik, mahsulot yetishtirishning agrotexnikaviy jihati va korxonalarda xo'jalik yuritishdagi o'zgarishlarga asosan, so'nggi 50 yil ichida makkajo'xori yetishtirish sezilarli darajada ko'payishiga olib keldi. Bugungi kunda makkajo'xori yetishtirishning ahamiyati makkajo'xori navlarini seleksiyaviy yaxshilash orqali birinchi galda, nisbatan muammosi kam bo'lgan madaniy ekin ekanligi, shuningdek, mahsulot yetishtirish texnologiyasini mexanizatsiyalashuvi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Mazkur bob *makkajo'xori doni va silos uchun makkajo'xori* o'simligini yetishtirish haqida ma'lumot beradi.



# 4 Makkajo'xori yetishtirish (*Zea mays*)




265-rasm. Erkak makkajo'xori guli (bayroq, popuk).

## 1. Asosiy tushunchalar

### 1.1. Ahamiyati

Har yili dunyoda 600 mln. tonna atrofida makkajo'xori yetishtiriladi. Bunga asosiy sabab makkajo'xori guruch va bug'doy singari insoniyat, hamda hayvonot olamining bir qismi uchun zaruriy oziqabop ekin hisoblanadi. Asosiy yetishtiruvchi mamlakatlar Yevro'pada Fransiya, Germaniya va Italiya hisoblanadi. Ular asosan bu mahsulot bilan 100 % o'z-o'zini ta'minlaydi. Makkajo'xori yetishtirish quyidagi omillar sababli Germaniyada keng tarqalgan:

- ▶ behisob foydalanish imkoniyatlari uni ozuqa vositasi va tovar sifatida ko'p tomonlama iste'mol qilishni ta'minlashi;
- ▶ birlamchi ekinga samarali ta'sir qilishi;
- ▶ ozuqa sifatida bug'doyga nisbatan afzalligi;
- ▶ oddiy konservatsiyalash jarayoni;
- ▶ ekin yetishtirish, parvarishlash va hosilni olishning mexanizatsiyalash imkoniyati;
- ▶ suyuq sharbatidan samarali foydalanish mumkinligi;
- ▶ yuqori darajadagi chidamlilik.



266-rasm. Asosiy va ikkilamchi so'talarga ega makkajo'xori o'simligi (sxema).

267-rasm. Makkajo'xorining tayanch ildizlari



### 1.2. Botanik xususiyatlari

Makkajo'xori ham bug'doy singari donli *o'simliklar* oilasiga mansub. Poyasi tugunchalar bilan ajratilgan bo'lib, har bir tugun orasi o'zak bilan to'ldirilgan. Bizda yetishtiriladigan navlarning taxminan 8-16 yaprog'i bor. Nav qanchalik kech pishib yetilsa, u shunchalik ko'p yaproq hosil qiladi.

O'simlikning yer ustidagi katta massasiga mos yaxshi rivoj topgan ildizlari bor. Dastlab, 3-5 ta novda ildizlar pastga qarab o'sadi. Keyinroq esa yer yuza qismi ostida joylashgan kurtaklardan *tojdor ildizlar* paydo bo'ladi, ular shudgor qilingan tuproqda anchagina zich joylashadilar (ildiz tomirlari), biroq yon tomonga qarab 1 m yoki undan ham ko'proq cho'zilishlari mumkin.

Ildizlar tuproqqa 2,5 m chuqurlikkacha kirishi mumkin. Bunday xususiyat bilan makkajo'xoribir vaqtning o'zida chuqur va yuza ildizli o'simlik hisoblanadi. Tuproq ustidagi eng pastki poya tugunlaridan *tayanch* (xavoli) *ildizlar* paydo bo'ladi.

Makkajo'xorilar bir uyali, ayrim jinsli o'simliklar sirasiga kiradi, bu degani har bir o'simlikbitta erkak vabir nechta urg'ochi gulbarglarga

ega. Erkak gulbargi poya uchidagi *popuk* hisoblanadi. Urg'ochi gul esa *so'ta poyasi* va *changchi tolalardan* tashkil topadi. Ular *so'ta o'ramasi* ichida bo'lib, kalta dastak ustida joylashadilar va yaproq qo'ltig'ida hosil bo'ladilar.

Har bir bog'lama 40-50sm uzunlikdagi gulchang zarralarini qabul qiladigan changchi tolani hosil qiladi. So'ta poyasi uchidagi changchi tolalar so'ta o'ramasidan chiqib popuk (tutam) hosil qiladi. Gulchang zarralari o'simlikda changchi tolalar paydo bo'lishidan 2-4 kun oldin yetiladi. Shu sababli shamol, qoidaga ko'ra, gulchanglarni qo'shni o'simliklarga (begona changlashish) olib keladi.



268-rasm. Makkajo'xoring ildiz tizimi.




Yaxshi urug'lanishga gullash paytidagi nam iliq ob havoda erishiladi. Gullash paytidagi surunkali yomg'ir esa urug'lanish darajasini kamaytiradi.

### 1.3. Foydalanish imkoniyatlari va shakllari

- ▶ Silos uchun makkajo'xori. O'simlikning poya qismidan qilingan silos, asosan, mollarni oziqlantirishda qo'llaniladi.
- ▶ Corn-Cob-Mix (Makkajo'xori doni va so'ta aralashmasi): Makkajo'xori so'tasi va donidan qilingan aralashma bo'lib, asosan, cho'chqalarni (suyuq) oziqlantirishda silos sifatida ishlatiladi.
- ▶ Makkajo'xori doni: quritilgan, nam holda konservalangan yoki silos qilingan makkajo'xori doni konsentratsiyalangan yem-xashak yoki sotiladigan mahsulot sifatida xizmat qiladi.
- ▶ Makkajo'xori so'tasi va o'ramidan qilingan shrot: Makkajo'xori so'tasi va o'ram (so'ta ni o'rab turgan yaproqlar)idan tashkil topgan aralashma. U mol boqishda konsentratsiyalangan ozuqa sifatida silos qilinadi va cho'chqalarni oziqlantirishda ham ishlatiladi.

269-rasm. Silos uchun yetilgan makkajo'xiridan foydalanish imkoniyatlari.



## 2. Yetishtirish texnologiyasi

### 2.1 Tabiiy sharoitga qo'yiladigan talablar

Tuproq. Makkajo'xori tuproq turiga, ayniqsa, yuqori talab qo'ymaydi. U 5,5 va 5,7 orasidagi pH ko'rsatgichini xush ko'radi.


Ob-havo sharoitlari. Makkajo'xori iqlim va ob-havo sharoitlariga nisbatan juda yuqori talablarga ega. Bunda nafaqat vegetatsiya davridagi yog'inlarning miqdori, balki ularning muntazam ravishdagi taqsimlanishi ahamiyatga ega. 1 may va 30 sentabr orasidagi o'rtacha temperatura 13,5 °C ni, quyoshning nur sochish davri esa boshidan to fiziologik yetilguncha taxm. 900 soatni tashkil qilishi kerak. (shundan 360 soati avgust va sentabr oylariga to'g'ri kelishi maqsadga muvofiqdir).

Makkajo'xori faqatgina qisqa vaqtga past sovuqqa, ya'ni -4 °C gacha chidaydi. O'simlikning o'sayotgan qismi zararlanmasa, u yana o'zini regeneratsiya (o'zini tiklay olish) qila oladi. Kuzda makkajo'xori -0,5 dan -1 °C gacha bo'lgan erta uradigan sovuqlarda sezilarli dara jada shikastlanishi mumkin.

Makkajo'xori yosh nihol paytida va hosilni yig'ib olishdan oldin *shamolga* nisbatan juda *sezigir* bo'ladi. Shu sababdan shamol havf solamolga nisbatan juda sezigir bo'ladi. Shu sababdan shamol havf solamolga nisbatan juda sezigir bo'ladi.

270-rasm. Makkajo'xori rivojlanishning dastlabki davrida shamol ta'sirida shikastlangan.


271-rasm. Makkajo'xoring iqlimiy talablari (sxema).



1 Asosiy tushunchalar	<b>192</b>
2 Yaylov o'simliklari	<b>194</b>
3 Yaylovdan foydalanish	<b>201</b>
4 Ishlab chiqarish texnikasi	<b>208</b>

Germaniyaning ko'pgina hududlarida iqlim va geografik sabablarga ko'ra, yer maydonlardan qishloq xo'jaligidan yaylov sifatida foydalaniladi. Shuning uchun bu hududlar chovachilikning tabiiy vatani deb ham yuritiladi.

Ushbu bob yaylovlardan keng miqyosda foydalanish tajribalarini bayon qiladi, maysazor va o'tloqlardan foydalanish asoslari va imkoniyatlarini ko'rsatadi, o'tzor yaylovlardagi chorvachilik tarmog'ining ishlab chiqarish texnikasi haqida ma'lumot beradi.



# Chorvachilik

11 Qoramolchilik	<b>278</b>
12 Cho`chqachilik	<b>421</b>
13 Boshqa foydali hayvonlar	<b>507</b>
• Qo`ychilik	
• Yilqichilik	
• Parrandachilik	

Mahalliy qishloq xo'jaligi birinchi navbatda, ayniqsa, chorva mahsulotlari ishlab chiqarishning globallashuv asrida - aholini si-fatli, hamda yuqori qiymatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'min-lashni kafolatlaydi. Shu tariqa, chorva mahsulotlari yetishtirish natijasida kundalik hayotda zarur bo'lgan behisob iste'mol va keng iste'mol mollaga bo'lgan e'htiyoj qondiriladi.

Bundan tashqari qishloq xo'jaligi sohasining chorvachilik tarmog'i landshaftni yaxshilaydi va bo'sh vaqtni o'tkazish, shuningdek, yaxshi dam olish imkoniyatini yaratadi. Bunda insonlar bevosita hayvonlar bilan yaqin munosabatda bo'lishi orqali tabiatdagi ja-rayonlar va undagi o'zgarishlarni yaxshiroq anglaydilar.

Qishloq xo'jaligida chorvachilik o'zining ushbu ko'p qirrali aha-miyati sababli insonlar uchun muhim xo'jalik tarmog'i sanaladi va xo'jalik daromadining asosi hisoblanadi.

Fermer xo'jaligining chorvachilik ishlari bo'yicha umumiy va maxsus bilimlarga ega bo'lish, har bir fermerning zaruriy bo'lgan bilimlari asosini tashkil qiladi. Bu esa chorvachilikning barqaror rivojlanishini belgilaydi va shu orqali xo'jalik rahbarining ishga bo'lgan ma'suliyati va xulq-atvori ham belgilanadi.





790-rasm. Qora-ola mol (golshtin-qora-ola)



791-rasm. Simmental



792-rasm. Qizil-ola mol (golshtin-qizil-ola)



793-rasm. Qo'ng'ir mol



794-rasm. Sariq mol



795-rasm. Angler



796-rasm. Jersey



797-rasm. Nemis angusi



798-rasm. Sharoli zotli buqa



799-rasm. Murnau-verdenfelzer sigiri



800-rasm. Hintervelder sigiri

801-rasm. Pintsgrauer sigiri



Zot deganda boshqa hayvonlardan o'zining ma'lum belgilari bilan ajralib turadigan va bu belgilarni keyingi nasliga qoldiradigan ma'lum turdagi hayvonlar guruhi tushuniladi.

Seleksiya maqsadi – seleksiya maqsadi seleksiya uyushmalari tomonidan belgilanadi. Nasldor hayvonlarning mahsuldorligi xo'jalik va bozor iqtisodiyoti talablariga yo'naltirilishi lozim, bunda nafaqat bozordagi kundalik davr sharoitlariga tayanilishi, balki imkon doirasidagi rivojlanish yo'nalishlari ham chamalanishi va e'tiborga olinishi lozim. Hayvonlar belgilariga qarab doim naslchilik maqsadlari aniqlanadi, bunda sut va go'sht kabi iqtisodiy belgilar eng oldingi o'rinda tursa, shakl va rang kabi tashqi ko'rinish belgilari bugungi kunga kelib deyarli ahamiyatini yo'qotgan.

Shu bois ba'zi zotlar ko'proq sut mahsuldorligiga ega bo'lsa, ayrimlarda go'sht mahsuldorligi ko'proq bo'ladi, shunga qarab **foydalanish yo'nalishida** *sutdor zotlar*, *go'shtdor zotlar* va *qo'sh mahsuldorli zotlar* farqlanadi. Asosiy naslchilik maqsadlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

► foydalanish yo'nalishi:

– sutdor mol;

– go'shtdor mol;

– qo'sh yo'nalishli mol;

► qo'sh yo'nalishli mollar ham, o'z navbatida, asosan, sut beradigan, go'sht beradigan, hamda tengma-teng sut va go'sht beradigan mollarga ajratiladi;

► sut mahsuldorligiga erishish; yog' va oqsil tarkibi;

► go'sht mahsuldorligiga erishish, bu yosh buqalarning kundalik semirishi bilan ifodalanadi;

► sigir va buqalarning yag'rin balandligi va tirik vazni;

► yelinning joylashuvi, shakli va sog'imligi;

► tuyoqlari, qarshilik qilish kuchi, foydalanilish davri; moslashuvch anligi;

► serpushtlik, oson bolalash;

► ozuqani hazm qilishi, asosiy ozuqani iste'mol etishi.

Muhim qoramol zotlari 78-jadvalda (284-bet) muhim nemis qoramol zotlari tashqi belgilari, foydalanish yo'nalishi, vazni va yag'rin balandligi bilan tasvirlangan. *Nemis qora-ola* va *nemis qizil-ola zotlari* bir necha yillardan beri qora-ola va qizil-ola rang yo'nalishidagi nemis golshtini sifatida naslchilikda bir xil maqsadlarda ko'paytirilib kelinmoqda, xususan, yuqori sut mahsuldorligi va yaxshi o'sish mahsuldorligi sababli, ammo ular statistikada alohida-alohida ko'rsatilingan. Faqat sut va sut tarkibidagi moddalarning ko'pligi sababli ko'paytiriladigan *yersey* zoti bilan birgalikda bu zotlar o'zlarining yuqori sut mahsuldorligi uchun **sutdor zotlar** sirasiga kiritiladi.

**Qo'sh mahsuldorli zotlar** orasida son jihatdan eng ko'p uchraydigan bu *nemis simmentali* hisoblanadi. Ayniqsa, bu zot Bavariyada ahamiyatli zotlarning 80 % dan ortig'ini tashkil etadi. Garchi simmental qo'sh mahsuldorli zot bo'lsada, u buzoqli sigirlarni saqlashda federal yerlar bo'ylab go'shtdor mol sifatida talabi katta. Simmentalning qisman populyatsiyasida shoxsiz zotlar urchitilmasdan naslchilik yo'li bilan yaratildi.

Mazkur yo'nalishning keyingi muhim vakili nemis qo'ng'ir moli hisoblanib, u Bavariyaning janubida va Baden-Vyurtembergda boqiladi.

Boshqa barcha qo'sh mahsuldorli zotlar son jihatdan uncha ko'p emas va Germaniyaning faqat ma'lum viloyatlaridagina uchraydi, masalan, *shimoliy Bavariyada (Franken) sariq mol yoki Shvarsvaldda for-dervelder*.

**Go'shtdor zotlarni intensiv** (masalan, simmental, sharoli, angus, limuzin) va **ekstensiv** zotlarga (galovey, hailand) bo'lish mumkin, ulardan buzoqli sigirlarni saqlashda nafaqat sof ko'paytirish, balki urchitish uchun ham foydalaniladi.

786-rasmda Germaniyada zotlarning tarqalishini ko'rish mumkin (283-bet). Ma'lumotlar chorva soni hamda olingan sog'in sigirlar podasining sut mahsuldorligi tekshiruvi (SMT) va sun'iy qochirish (SQ) to'g'risidagi ma'lumotlar yordamida nemis seleksionerlarinig ishchi uyushmasini (NSU) ifodalaydi. Bunda butun qoramol podasidagi zotlarning baholanishi uchun yaxshi qiymatlar berilgan.

Ko'p yillar mobaynida qora-ola va simmental zotlari 75 % bilan taxminan bir xil oldingi o'rinda keldilar, Sharqiy va Garbiy Germaniya qayta birlashganidan keyin qora-ola sudor molning (QSM) kirib kelishi orqali qora-olalar 47,4 % bilan eng ko'p tarqaldi, ulardan keyin simmental, qizil-ola va qo'ng'ir mollar turadi.

So'nggi yillarda go'shtdor mollar soni juda ko'payib ketdi. Ular hozir 13,4 % ni tashkil etishadi.

„Boshqalar“ deganda qisman yo'qolib ketish xavfi bo'lgan barcha zotlar nazarda tutiladi, masalan, murna-u-verdenfelzer, hintervelder yoki pinsgauer zotlari. Kelajakda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan, qiymatli irsiy axborotlar yo'qolib ketmasligi maqsadida ko'pgina Federal Yerlar „yo'qolib ketish xavfi bo'lgan zotlarni saqlash“ dasturini boshladilar. Bu zotlarning gen zahiralarni saqlash va shakllantirish uchun mukofotlar tasis etilgan.

## 2.2. Mahsuldorlik tekshiruvlari

Nasldorlik qiymatini baholash **mahsuldorlik tekshiruvlari** natijalari asosida o'tkaziladi. Obyektiv mahsuldorlik tekshiruvlari nasl tanlash (seleksiya) uchun dastlabki zamindir. Qoramol naslchiligida *bevosita mahsuldorlik* (sut mahsuldorligi yoki go'sht mahsuldorligi) va *bilvosita mahsuldorlik* (salomatlik yoki serpushtlik) farqlanadi.

Ikkala mahsuldorlik turi ham qisman bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bundan tashqari ular tana tuzilishi bilan ham aloqadordir. Qoramol naslchiligida *mahsuldorlik nazorati* bilan birga *hayvonni baholash* ham katta ahamiyatga ega.

### 2.2.1. Sut va go'sht mahsuldorligi

Sut mahsuldorligi tekshiruvi (SMT)– bu tekshiruv faqat *poda kito-biga ega xo'jaliklar* uchungina *majburiy*, boshqalari uchun esa ixtiyoriy hisoblanadi. U naslchilik dasturida o'zining muhimligi bilan bir qatorda har qanday fermer uchun ham *xo'jalik iqtisodiga foyda* keltiradi. Sigirlarning mahsuldorlik darajasini aniq bilish *mahsuldorlikka xos oziqlantirish* imkonini yaratadi va xo'jalikda nasl tanlashni osonlashtiradi.



802-rasm. Simmental zotidagi genetik shoxsiz buqa




803-rasm. Gallovey-buqa



804-rasm. Hailand-buqa

805-rasm. Limuzin-buqa



# Boshqa foydali hayvonlar

# 13

- |                   |            |
|-------------------|------------|
| 1. Qo'ychilik     | <b>508</b> |
| 2. Yilqichilik    | <b>520</b> |
| 3. Parrandachilik | <b>530</b> |

Qoramol va cho'chqa saqlovchilar soniga va poda kattaligiga solishtiriladigan bo'lsa, qo'y, ot va parranda kabi boshqa foydali hayvonlarni saqlash nemis qishloq xo'jaligida uncha ahamiyatga ega emas. Yani, mamlakat iqtisodiyotida ko'proq ahamiyatsiz xarakterga ega bo'lgan, ammo hududiy yoki ayrim turdagi xo'jaliklar uchun asosiy daromad manbai hisoblangan muqobil mahsulotlar yetishtirish haqida gap ketadi.

Ushbu hayvonlarni saqlash uchun iqtisodiy qarashlar bilan birga, ko'pincha, ekologik iqlimiy va geografik asoslar ham hal qiluvchi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda xo'jalik rahbarining shaxsiy moyilligi va an'anaviy, xo'jalikka xos shart-sharoitlar ham muhim hisoblanadi.

Quyidagi bob ushbu hayvonlarni maxsus shaklda saqlash shart-sharoitlari va xo'jalikni muvaffaqiyatli yuritishning o'ziga xos asoslari to'g'risida ma'lumot beradi.



# 13 Boshqa foydali hayvonlar

## 1. Qo'ychilik

### 1.1. Ahamiyati

Germaniya 150 yil oldin dunyodagi eng katta *jun eksport qiladigan mamlakat* hisoblangan. Jun yetishtirish o'tmishdagi to'kin-sochinlikning muhim kafolatidan biri edi. Jun qo'ychilikda 50-yillargacha katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bugungi kunda jun miqdori ichki talabning juda oz qismini qoplaydi (6 % atrofida).

Qo'ychilikning iqtisodiy jihatdan rentabellikka ega ekanligi qo'zi go'shtini yetishtirish bilan belgilanadi. Bundan tashqari qo'ylar yarim cho'l, tog'li hududlar, to'g'on kabi joylardagi landshaftni parvarishlashda katta ahamiyatga ega.


Qo'ylar quyudagi sabablarga asosan **landshaftni parvarishlashga** juda mos kelishadi:

- ▶ qo'ylarning mayin yurishi yerni tekislashga xizmat qiladi;
- ▶ zotiga qarab qo'ylar tik yoki nam yoxud o'rmonli joylarda saqlanadi;
- ▶ qo'ylar qolamollarga qaraganda turli-tuman ozuqalarni iste'mol qiladilar;
- ▶ qo'ylar yaylovdagi o'tlarni tanlab yeyishi strukturaning turli-tumanligiga olib keladi;
- ▶ hotirjam yaylov hayvoni sifatida qo'ylarning boshqa hayvonot dunyosiga ozori yo'qdir.

### 1.2. Zotlar

Germaniyada foydalanish yo'nalishiga qarab qo'y zotlari 4 guruhga bo'linadi:

- ▶ **go'shtdor serjun qo'ylar:** bunday qo'ylarning an'anaviy vakillari merinos va go'shtdor merinos hisoblanadi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari qarshilik ko'rsata olish, qo'tonda saqlash, hamda mavsumga bog'liq bo'lmagan kuyikish qobiliyatiga ega ekanligidadir;
- ▶ **go'shtdor qo'ylar:** bu guruhga oq boshli go'shtdor qo'y, taksel qo'yi va suffolk kiradi;
- ▶ **mahalliy qo'ylar:** ular o'zlarining alohida xususiyatlari sababli maxsus geologik va iqlimiy joylarda ahamiyatga ega. Mahalliy zotlarga misol tariqasida cho'l qo'yi, ron qo'yi, qoburg qo'yi, sariq qo'yini keltirish mumkin;



1316-rasm. Germaniyada qo'ychilikning ahamiyati (2004-yilgi holat hisoboti; statistik federal boshqaruvi).

1317-rasm. Muflon eng qadimiy qo'y turiga kiradi.





1318-rasm. Merinos mahalliy qo'yi.



1319-rasm. Nemis qora boshli go'shtdor qo'y.



1320-rasm. Teksel qo'yi.



1321-rasm. Nemis oq boshli go'shtdor qo'y.



1322-rasm. Kul rang, shoxdor cho'l qo'yi.



1323-rasm. Oq tog' qo'yi.



1324-rasm. Sharqiy Friziya sutdor qo'yi.



1325-rasm. Moviyo boshli go'shtdor qo'y.